



UDK:80/81.811.512.133

Munis XOLBOYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: munisbek9599@gmail.com

Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori O.Shukurov taqrizi asosida

O'ZBEK TILIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR TAVSIFI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tili leksik taraqqiyotida arabcha va forscha o'zlashma so'zlarning o'rni, kelib chiqish manbalari hamda tasnifi atroflicha yoritiladi. Unda o'zbek tilining lug'at boyligiga ichki va tashqi manbalar ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, tashqi manbalar, xususan arab va fors tillaridan kirib kelgan so'zlarning tilga qanday yo'llar bilan o'zlashgani haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: O'zlashma so'zlar, arabcha so'zlar, forscha so'zlar, til o'zgarishi, leksik boylik.

DESCRIPTION OF LOANWORDS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article comprehensively covers the role, origins, and classification of Arabic and Persian loanwords in the lexical development of the Uzbek language. First of all, the influence of internal and external sources on the vocabulary of the Uzbek language is revealed. It is discussed how words borrowed from external sources, in particular from Arabic and Persian, were assimilated into the language.

Key words: Borrowed words, Arabic words, Persian words, language change, lexical richness.

ОПИСАНИЕ ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье подробно освещается роль арабских и персидских заимствованных слов в лексическом развитии узбекского языка, их источники происхождения и классификация. Раскрывается влияние внутренних и внешних факторов на словарный состав узбекского языка. Также рассматриваются пути заимствования слов из внешних источников, в частности, из арабского и персидского языков.

Ключевые слова: Заимствованные слова, арабизмы, персизмы, языковые изменения, лексическое богатство.

Kirish. O'zbek tili bir necha asrlik tarixiy rivojlanish jarayonida leksik tarkibini ichki manbalar asosida kengaytirib va takomillashtirib bordi. Shu jarayonda o'z qatlam asoslariga tayangan holda yangi leksik birliklar yaratilgan bo'lsa, mavjud so'zlarning ma'nosi boyitildi, ba'zi so'zlarga esa qo'shimcha funksiyalar yuklatildi, bu esa o'zbek tilining leksik boyligi va ifoda imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qildi. O'zbek tilining leksik boyligini shakllantirishda ichki resurslar asosiy o'rin tutadi. Biroq, dunyo tillarining hech biri faqat o'zining ichki imkoniyatlariga tayanib rivojlanmaganidek, o'zbek tili ham faqat o'z so'z boyligi va leksik imkoniyatlari bilan cheklanib qololmaydi. O'zbek tilining so'z boyligini kengaytirish va takomillashtirishda tashqi ta'sirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, hech qanday til mutlaqo tashqi omillarsiz rivojlana olmaydi. Turli tillarning tarixiy jarayonda o'zaro aloqada bo'lishi tabiiy hodisadir. Bunday lingvistik aloqalar o'zaro ta'sirlashuvchi tillarning, ayniqsa ularning leksik tizimlarida aniq iz qoldirishi mumkin.

Til boyligidagi tarixiy jarayonlarda ro'y beradigan o'zgarishlar ularning mohiyati va darajasiga ko'ra qat'iy belgilangan emas, balki shartli xarakterga egadir. Tilning jamiyatdagi muloqot vositasi sifatidagi xususiyatlari uning leksikasidagi o'zgarishlarning mutlaq shaklda sodir bo'lishiga imkon bermaydi.

O'zbek tili lug'aviy tarkibida hech qachon undagi mavjud so'zlarning barchasidan butunlay voz kechish yoki ularning o'rniga yangilarini yaratish kabi keskin o'zgarish sodir bo'lmagan. Bunday qonuniyatlari har qanday tilning lug'aviy boyligida barcha davrlarda ma'lum bir ildiz qatlamining saqlanib qolishini tasdiqlaydi. Lug'at tarkibining negizini tashkil etuvchi so'zlar — o'zbek tilida asrlar mobaynida o'z shakl va mazmunini yo'qotmagan, barhayot so'zlardir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zlashmalar masalasiga ilk munosabatlar turkiy tilshunos, lug'atshunos olim M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida mavjud. U o'zga tilidan qabul qilingan so'zlarga ikki xil munosabatda

bo'ladi. Turmushga doir turli xil narsa va predmetlar borki, ular hayotga singib ketgan. Tilda uni nomlovchi so'z bo'lmasa, shunday so'zni qo'shni tildan olish mumkin. Biroq tilda mavjud so'zlar o'rnida boshqa til so'zini qo'llashni zararli deb hisoblaydi[3]. Jumladan, "Devonu lug'otit-turk"da quyidagi satrlarni uchratamiz: "O'g'uzlar forsilar bilan aralashgach, ba'zi so'zlarni unutdilar va ularning o'rniga forsicha so'zlarni qo'llay boshladilar"[1]. Koshg'ariy turkcha va so'g'dcha gaplashuvchilar haqida to'xtalar ekan, ularning tilida "buzuqlik bor" deya ta'kidlaydi[1].

Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'z ona tilida she'r yozishga qodir bo'lmagan "zarif" shoirlar tanqid qilinadi. Shundan so'ng, turkiy va forsiy tillarning qiyosiy tahlili boshlanadi. Unda fors-tojik tiliga turkiy tildan kirib kelgan so'zlar, so'zlarning mavzuviy guruhlariga mansubligi, tarkibiy boyligi, sinonimlik va omonimlik, shuningdek, turkiy tilning qofiya yaratishdagi imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi. Bu qiyoslashdan ko'zlangan asosiy maqsad — so'z ma'nolarining boyligidan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatishdir.

O'zbek tiliga arab, fors, tillaridan anchagina so'zlar o'zlashtirilgan. Forscha so'zlar tarkibidan o'zbek tiliga o'zlashgan bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin.

Ilm-fan va hunarmandchilik bilan bog'liq so'zlar: hunar (هنر), san'at (صنعت), me'mor (معمار), rang (رنگ), shisha (شیشه).

Tabiat va kundalik hayot bilan bog'liq so'zlar: gul (گل), bo'ston (بوستان) — (bog'), nasl (نسل), bozor (بازار), shakar (شکر).

O'zlashtirish hodisasi, asosan, so'z o'zlashtirishdan iboratdir. Chet tilidan o'zbek tiliga o'zlashtirilgan boshqa elementlar, asosan, bu tilga o'zlashma so'zlar tarkibida kirgan. So'z o'zlashtirish o'zbek tiliga biror bir chet tilidan so'z olishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. So'z qabul qilingan tilga kirgan, ya'ni singgan bo'lishi uchun bir qator talablarga javob berishi kerak.

1. O'zlashgan leksik birlik uni qabul qilgan tilning qonun-qoidalarga moslashadi..

2. Bunday so'z qabul qiluvchi tilning leksik-semantik tizimiga bog'lanadi va unga mos ravishda singib ketadi.

3. O'zlashgan so'z tabiiylik va aniqlik kasb etadi, shuning uchun undan shubhalanish yoki uni boshqa so'zlar bilan aralashtirib yuborish ehtimoli yo'qoladi.

4. Ushbu so'z til egasi bo'lgan xalq tomonidan ham xuddi ona so'zdek qabul qilinadi, natijada uning begona unsurligini ilg'ash mushkul bo'ladi.

5. So'z o'zlashgan bo'lsa, bu so'zning tildan tezda chiqib ketishi ehtimoli bo'lmaydi. Bunday so'zning keraksizligi haqida, uni tildan chiqarish haqida o'rinsiz munozaralar bo'lmaydi va boshqalar [4].

O'zlashmalar o'zbek tiliga turli yo'llar bilan kirib keladi. Qator ilmiy, texnik, harbiy va maishiy terminlar bu davrda ommalashadi hamda tilning lug'at tarkibidan o'rin egallaydi. Arabcha o'zlashmalarining ko'p qismi o'zbek tiliga yozma manbalardan, qisman esa og'zaki nutqdan o'zlashtirilgan.

Mahalliy xalqlar tillariga arab tilining ta'siri to'g'ridan-to'g'ri VIII asr boshlarida arablar tomonidan O'rta Osiyoning zabt etilishi, Arab xalifaligi hukmronligining boshlanishi va bu mintaqalarning islom dinini qabul qilishi bilan bog'liq. Arab xalifaligining O'rta Osiyoga bostirib kirishi mahalliy aholining iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazdi, ularning asrlar davomida shakllangan boy madaniy merosi yo'q qilindi. O'rta Osiyo xalqlari islom dini bilan bir qatorda arab yozuvini ham o'zlashtirdilar. Arab tili esa jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin tuta boshladi. Bu til faqatgina islom dini targ'iboti, unga oid falsafiy qarashlar, tushunchalar va diniy amallarni ado etish bilan cheklanmay, balki davlat boshqaruvi, ilm-fan va madaniyat sohalarida ham asosiy aloqa vositasi bo'lib xizmat qilgan. Arab tilining ilm-fan va adabiyotda keng qo'llanilishiga, bir tomondan, uning islom dini bilan birga yoyilishi, ikkinchi tomondan esa, ulkan hududda hukmron tilga aylanishi sabab bo'lgan.

O'zbek leksikografiyasi ma'lumotlariga ko'ra, internatsional so'zlarning asosiy qismini fors-tojik manbalaridan olingan so'zlar va arabizmlar tashkil etadi. Shuningdek, ular orasida yevropacha va ruscha o'zlashmalar nisbatan kamroq uchraydi, sharq tillaridan o'zlashgan so'zlar esa yanada o'z miqdorda mavjud. Mashhur tilshunos olim Fotih Abdullayevning tadqiqotlariga ko'ra, o'zbek tiliga 55-60 foiz arabcha so'zlar o'zlashganligi aniqlangan.

Arabcha so'zlarning o'zbek tiliga singib ketishida muhim rol o'ynagan omillar quyidagilardir:

1. Arab tili o'sha davrda davlat tili, rasmiy adabiy til sifatida faoliyat yuritgan. Davlatning barcha rasmiy, huquqiy hujjatlari arab tilida yuritilgan va rasmiylashtirilgan. Davlat boshqaruvi, sud tizimi, savdo-sotiq va xo'jalikka oid ishlar aynan shu tilda olib borilgan. Arab tili hukmron tuzumning boshqaruv tili bo'lgan. Ushbu holatlar arab tilining mahalliy aholi vakillarining og'zaki va yozma nutqiga kuchli ta'sir ko'rsatishiga zamin yaratgan.

2. Arab tili rasmiy tarzda badiiy adabiyotning asosiy ifoda vositasi sifatida ham amal qilgan. Mahalliy ijodkorlar o'z davrida adabiy asarlarini arab tilida yaratganlar. Arab tilidagi adabiyot bilan tanishish va undan foydalanish turkiy tillarga arab tilining chuqurroq ta'sir etishiga sabab bo'lgan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

3. Mazkur davrda arab tili O'rta Osiyo va Sharq xalqlari uchun ilm-fan hamda madaniyat tili sifatida e'tirof etilgan. Arablar hukmronligi davrida barcha ilmiy asarlar, fan va madaniyatga oid risola hamda to'plamlar arab tilida yozila boshlagan. Mahalliy xalqdan chiqqan olim va ulamolar ham o'z asarlarini fanning rasmiy tili sifatida keng tarqalgan arab tilida yozishgan. Xorazmiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi mahalliy xalq olimlari o'z ilmiy va badiiy asarlarini arab tilida yozishdi. Bu hol arab tilining fan va madaniyat tili sifatida mahalliy xalq tiliga ta'sir etishiga olib keldi.

4. Arab tili o'sha davrning ta'lim tili ham edi. Maktab va madrasalarda ta'lim ishlari arab tilida olib borildi. Yozuv ishlari va savod chiqarish ham arab yozuvi va tilida olib borildi. Bu vaziyat mahalliy xalqning arab tilini egallashiga, uni bilishiga xizmat qildi. Xorijiy tilni bilish esa qo'sh tillilikning muhim omilidir.

5. Arab tili hukmron xalqlarning markaziy nutq vositasi, rasmiy va majburiy til bo'lgan. Yuridik me'yorlar, diniy hamda ma'naviy e'tiqodlar qanday majburan singdirilgan bo'lsa, arab tili ham mahalliy aholi orasida shunday tarqatilgan. Bu, ayniqsa, hukmron tabaqaning arablashtirilishi va arab tilida so'zlashga majburlanishida namoyon bo'ldi. Natijada, hukmron qatlam orasida arab tilida muloqot qilish va nutq yuritish odat tusini oldi. Ushbu omillar esa, ularning tiliga arab tilining ta'sirini ko'chaytirishga sabab bo'ldi.

6. Arab tilining turkiy tillarga ta'siri ma'lum darajada uning lingvistik xususiyatlari bilan bog'liq edi. O'sha davrda O'rta Osiyoda keng tarqalgan klassik arab tili so'z boyligi, ilmiy atamaları hamda poetik uslub leksikasining xilma-xilligi bilan ajralib turardi. Bu tilda qadimgi yunon madaniyati durdonalarini mutolaa qilish mumkin edi. Xullas, arab tili adabiy til sifatida juda mukammal va sayqal topgan til hisoblangan. Aynan shu fazilatlar arab tilida ilmiy asarlar yaratishni ancha yengillashtirgan. Masalaning ana shu jihati ham arab tiliga e'tiborni oshirgan, uni o'rganish va bu tilda ijod qilishga da'vatni kuchaytirgan bo'lishi mumkin.

7. Turkiy tillarga arabcha so'zlarning kirib kelishiga ta'sir qilgan omillardan biri arab va turkiy tilli xalqlarning bevosita muloqotga kirishganidir. Bosqinchilarning katta sonli askarlari, shubhasiz, mahalliy turkiy xalqlar bilan to'qnashgan va ular bilan turli shakllarda aloqa o'rnatgan. Bundan tashqari, arablar o'z piyoda qo'shinlari va maxsus guruhlarini bo'ysundirilgan hamda islomni qabul qilgan xalqlardan ham shakllantirgan. Ana shunday omillar natijasida arab va turkiy tillar harbiy lagerlar, qarorgohlar hamda boshqa turar joylarda o'zaro aloqa qilgan. Harbiy baza va qarorgohlar arab tilining mahalliy xalqlar orasida tarqalishida muhim omillardan biri bo'lgan.

Forscha o'zlashmalar esa, asosan, og'zaki nutq orqali kirib kelgan bo'lib, xalq tili va adabiyot orqali keng tarqalgan. Bu jarayonda turkiy-forsiy madaniy aloqalar, tarixiy voqealar va savdo-sotiq katta rol o'ynagan. Shu sababli, arabcha so'zlar ko'proq diniy, ilmiy va ma'muriy terminlar sifatida o'zlashgan bo'lsa, forscha so'zlar kundalik hayot, san'at, hunarmandchilik va tabiat bilan bog'liq qatlamda uchraydi.

Fors tilidan o'zlashgan so'zlarning o'zlashish jarayonini uch bosqichli davr asosida shakllanganini ko'rishimiz mumkin:

1) qadimgi davr;

2) o'zbek tilining fors adabiy tili bilan uzviy aloqasi bo'lgan davr

(IX-X, XI-XV asrlar);

3) o'zbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi davri (qadimdan to hozirga qadar); [5]

Tahsil va natijalar. "O'zbek tilining izohli lug'ati" (V jild, 2020)da uch yarim mingga yaqin (3473 ta) arabcha so'z izohlangan. Ularning salmoqli qismi ta'lim-tarbiya va madaniy-ma'rifiy mazmundagi birliklardir. Arabcha va forscha so'zlarning o'zbek tiliga juda tabiiy tarzda singib ketgani, o'zbek xalqi esa ularni ona tilidagi so'zlar qatorida qabul qilgani – inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Chunki so'zlovchilar kundalik hayotda qo'llayotgan ayrim so'zlarning aslida arabcha yoki forscha ekanini sezmaydilar, ularni o'z tilining tarkibiy qismi sifatida qabul qiladilar.

Hozirgi leksika sistemadagi arabcha-forscha o'zlashmalar so'z o'zlashtirishda tarixiy-an'anaviy tamoyilga asoslangan [2].

Shu o'rinda arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlarning o'zbek tilida tutgan o'rni haqida ham aytib o'tishimiz lozim. O'zbek tili leksikasi bugungi kungacha ham mazkur tilning yozma manbalarida ilgari mavjud bo'lgan eski, arabcha va forscha so'zlarni yangicha mazmun va shaklda qayta qo'llash orqali boyib borayotganini ko'rish mumkin. Bu jarayonda yozuvchi va shoirlar, jurnalistlar, tarjimonlar hamda boshqa ijodkorlarning hissi beqiyosdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, til o'ziga xos ichki qonuniyatlarga ega bo'lib, u lingvistik va nolingvistik omillar bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, yangi so'zlarning paydo bo'lishi va so'z o'zlashishi bir-biriga qarama-qarshi jarayonlar bo'lsa-da, ular bir-birini inkor etmaydi va yonma-yon kechuvchi hodisalardir. Bu jarayonlar til taraqqiyotining turli bosqichlarida faollashib, o'zaro almashib boradi. Bizningcha, chet tillaridan yangi so'zlarning kirib kelishini butunlay to'xtatish til va jamiyat

rivojlanish qonuniyatlariga zid bo'lar edi. Ushbu hodisalarni tilning yashashga bo'lgan intilishi sifatida ham baholash mumkin. Shu bilan birga, chet tilidan ortiqcha so'zlarning kirib kelishi bir qator xavfli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, bu jarayon hozirgi paytda sezilarli darajada jadallashgani bilan ajralib

turadi. Shuning uchun tilshunoslardan jamiyat hayotiga yaqinroq yondashishni talab etadi va tilga ta'sir qiluvchi o'zgarishlarni tez hamda oqilona belgilab beruvchi yo'nalish – sotsiolingvistikaga katta e'tibor qaratish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Koshg'ariy M. Devonu lug'atit turk. I jild – Toshkent, 1960. – B.406.
2. Mirtojiyev M. O'zlashgan so'z – payvand kurtagi. –Toshkent: O'zbekiston: 1988. –B. 3.
3. Tursunov U., O'rinboyev B. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – B.86.
4. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1981. – B.84.
5. Shukurov O. O'zbek tili zamonaviy o'zlashmalarining evolyutsiyasi, transformatsiyasi va leksikografik talqini masalalari (mustaqillik davri)- Filol. fan. dok. diss. –Qarshi. –2022. –B. 31